



XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 9-yanvar

VII-17-1-5-71-K/26

Karmana tumani

Karmana tuman bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo'llaniladigan koeffitsientlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga muvofiq qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasi respublika hududlari kesimida 1 kv.metr va 1 gektar uchun mutlaq o'lchamda belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalarini belgilashi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda soliq inspeksiyasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning 2026-yil uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i stavkalari, uchun kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar yuzasidan takliflar ishlab chiqilganligi inobatga olinib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan 2026-yilda tuman bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida

mo'ljallanmagan yerlarini bazaviy soliq stavkasi mutloq miqdori 1 gektar uchun 55 120 000 so'm, jismoniy shaxslar yerlarining 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi mutloq miqdori 377,0 so'm qiymati ma'qullanganligi inobatga olinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Axmedov)ning:

hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tumanning kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib tuman bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutloq miqdorlariga hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, yashashga mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'yektlari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsientlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumanning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, Karmana tumandagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar 1-ilovaga, 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga, 2026-yil uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. "Karmana ovozi" gazetasi tahririyati gazetasi (A.Djurayev), tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Musayev)ga:

tuman bo'yicha 2026-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda qo'llaniladigan eng kam qiymat bo'yicha ma'lumotlarni "Karmana ovozi" gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytida e'lon qilish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 17-yanvar 2025-yil 17-VII-3-2-5-71-K/25-sonli va 2025-yil 10-fevral VII-5-14-5-71-K/25-sonli qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari va xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiyada raislik qiluvchi



**URALOV
MAMASOLI
RABBIMOVICH**

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-17-1-5-71-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Karmana tumandagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqaro yig'inlari nomi	Jismoniy shaxslar bo'yicha, 1 kv.m uchun		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)	Koeffitsient	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)
1	Uzbekiston MFY	1,30	490,10	1,12	61 734 400,0
2	Talqoq MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
3	Sardoba MFY	1,30	490,10	0,90	25 019 280,0
4	Paxtaobod MFY	1,60	603,20	1,12	61 734 400,0
5	Paxlavon MFY	1,60	603,20	1,10	60 632 000,0
6	Nurafshon MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
7	Narpay MFY	1,60	603,20	1,20	66 144 000,0
8	Do'stlik MFY	1,30	490,10	0,90	49 608 000,0
9	Navro'z MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
10	Mirsaid Baxrom MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
11	Uyrot MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
12	Ko'xna Qurgon MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
13	Kumushkon MFY	1,30	490,10	1,05	57 876 000,0
14	Qaxramon MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
15	Katta machit MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
16	Kalovot MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
17	Ziyokor MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
18	Jaloyir MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
19	Malik MFY	1,30	490,10	0,70	38 584 000,0

20	Farxod MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
21	Bogishamol MFY	1,30	490,10	1,05	57 876 000,0
22	Xonchorbog MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
23	Do`rman MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
24	Azamat MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
25	Ayronchi MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
26	Allon MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
27	Arabxona MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
28	Arg`un MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
29	Beshkent MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
30	Varq MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
31	Degaron MFY	1,60	603,20	1,12	61 734 400,0
32	Yangihayot MFY	1,30	490,10	1,05	57 876 000,0
33	Yangi varq MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
34	Yangi obod MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
35	Yangi ariq MFY	1,60	603,20	1,00	55 120 000,0
36	Shibzon MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
37	Xo`ja Xisrav MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0
38	Xazora MFY	1,60	603,20	0,90	49 608 000,0
39	Dexqon MFY	1,60	603,20	1,35	74 412 000,0

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-17-1-5-71-K/26 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan
o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori**

T/R	Hudud nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)
1	Karmana t	1,1	1,1	1,1	1,1

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-17-1-5-71-K/26 -son qaroriga
3-ilova

**2026-yil uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan
soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori**

№	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qo'llanilgan koeffitsiyentlar (so'mda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanesjinslari, karbonat xom ashyosi, travertin so'm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar so'm/m.kub		Marmar so'm/m.kub		Granitlar so'm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch so'm/tonna		G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar so'm/m.kub		Qum-shag'al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar so'm/m.kub	
		Koeffitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi
1	Karmana t	1,10	7 250,1	1,12	11 984,0	1,10	23 540,0	1,12	35 952,0	1,10	18 772,6	1,15	5 684,5	1,2	6 420